Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zadfarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI



Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Mustaqil tadqiqotchi PhD.

Email: shermuhammad@dtpi.uz

ORCID: 0009-0009-3469-3486

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida 2023–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, tarmoqlar va hududlar kesimidagi faolligi baholandi. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, dinamik hamda strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar kichik biznesning iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish va hududiy yondashuvni rivojlantirish zarurligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, bandlik, hududiy rivojlanish, davlat qo'llab-quvvatlashi.

Abstract. This article analyzes the role of small business and private entrepreneurship in the economy of Uzbekistan and examines key trends in their development. Based on official statistical data for 2023–2025, the study assesses the share of small business entities in gross domestic product as well as their activity across sectors and regions. The research employs methods of analysis and synthesis, comparative analysis, and dynamic and structural analysis. The findings confirm the significant role of small business in promoting economic growth and employment. The study substantiates the need to strengthen financial support, improve institutional mechanisms, and develop a regional approach to small business development. The results may be used in formulating scientific and practical recommendations aimed at advancing small business and private entrepreneurship.

Key words: small business, private entrepreneurship, economic growth, employment, regional development, government support.

Аннотация. В статье проанализированы роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике Узбекистана, а также основные тенденции их развития. В ходе исследования на основе официальных статистических данных за 2023–2025 годы была оценена доля субъектов малого предпринимательства в валовом внутреннем продукте, их активность в отраслевом и региональном разрезах. В работе использованы методы анализа и синтеза, сравнительного, динамического и структурного анализа. Полученные результаты подтверждают значимую роль малого бизнеса в обеспечении экономического роста и занятости населения. Обоснована необходимость усиления финансовой поддержки, совершенствования институциональных механизмов и развития территориального подхода в сфере малого предпринимательства. Результаты исследования могут быть использованы при разработке научно-практических рекомендаций по развитию малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономический рост, занятость, региональное развитие, государственная поддержка.



KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiy o'sishning muhim drayveri bo'lib, innovatsion faollik va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq va moliyaviy rag'batlar berish, ro'yxatdan o'tkazish va ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish, shuningdek, raqamli davlat xizmatlarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi va faolligining izchil oshishiga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, kichik biznesning tarmoqlar va hududlar kesimidagi rivojlanish darajasi bir xil emasligi, ayrim sohalar va hududlarda mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tahlil o'tkazishni talab etadi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikka qo'shayotgan hissasi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi o'rni hamda hududiy rivojlanishga ta'sirini statistik ma'lumotlar asosida baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi holatini tahlil qilish, uning tarmoqlar va hududlar kesimidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari kichik biznesni yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash hamda hududiy rivojlanishdagi roli mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Mazkur yo'nalishdagi ishlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, tarmoqlar kesimidagi faolligi hamda iqtisodiy barqarorlikka ta'siri asosiy tadqiqot obyektlari sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025-yillarda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlar kichik tadbirkorlikning savdo, xizmatlar, qurilish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yetakchi o'rinlarni egallayotganini ko'rsatadi. Ushbu manbalar kichik biznesning iqtisodiy ahamiyatini empirik jihatdan asoslash imkonini beradi.

Davlat tomonidan qabul qilingan Prezident farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Normativ-huquqiy hujjatlarda soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlash va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Boltayev, Qosimova va G'oyibnazarov (2021) tadqiqotlarida kichik biznes va tadbirkorlikning nazariy asoslari hamda iqtisodiyotdagi o'rni tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Umurzaqov va Toshboyev (2020) asarlarida kichik tadbirkorlikning O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari va tarmoqlar kesimidagi taqsimoti o'rganilgan. Jumayev (2019) kichik biznesni hududiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashning muhim omili sifatida baholaydi.

Qosimova va Samadov (2022) ishlarida kichik biznes subyektlarining moliyaviy boshqaruvi, soliqqa tortish va kreditlash mexanizmlari yoritilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar kichik tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarini ochib beradi.

Xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, OECD va UNIDO hisobotlarida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va inklyuziv rivojlanishdagi roli chuqur tahlil qilingan. Ushbu manbalar O'zbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan qiyoslash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi.



Empirik tahlil O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda rasmiy davlat axborot manbalarining 2023–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlariga asoslandi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, tarmoqlar va hududlar kesimidagi ko'rsatkichlari dinamik hamda strukturaviy tahlil usullari orqali baholandi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlil qililib, kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Olingan natijalar mantiqiy umumlashtirish usuli orqali xulosalandi va amaliy ahamiyatga ega ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tuzilmasida asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'lib, ularning yalpi ichki mahsulot (YalM) shakllanishidagi ulushi yildan yilga yuqori darajada saqlanib kelmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar hajmi 504,2 trillion so'mni tashkil etib, bu mamlakat YalMning 54,3 foiziga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich kichik tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

2025-yilning yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy YalMning 51,5 foiz hissasini shakllantirdi. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan biroz pasaygan bo'lsa-da, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi o'rni va barqaror hissasi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar kesimidagi ulushi (2024)¹

Tarmoq	Ulushi (%)	Yillik hajmi (trln so'm)
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	95,2%	82,7
Qurilish	76,5%	45,1
Chakana savdo	84,0%	96,3
Xizmatlar	57,0%	147,6
Umumiy YalMdagi ulushi	54,3%	504,2

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinadigan bo'lsa, kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagi sohalarda yetakchi o'rinni egallagan.

Qishloq xo'jaligi sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari yetakchi mavqega ega bo'lib, bu holat mazkur tarmoqda xususiy sektorning ustuvor o'rnini tasdiqlaydi. Qishloq xo'jaligidagi kichik biznesning 95,2 foizlik ulushi mamlakatda agrar sohaning barqaror rivojlanishida, mahalliy iste'mol va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlarida kichik tadbirkorlik subyektlari yer maydonlaridan samarali foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga xizmat qilmoqda.

Chakana savdo sohasida kichik biznesning 84,0 foizlik ulushi iste'mol tovarlari ta'minoti tizimida uning markaziy rolini yaqqol namoyon etadi. Bu holat, bir tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar mahsulotlarini bozorga yetkazish imkoniyatini kengaytirs, ikkinchi tomondan, iste'molchilarga qulay narxlar va keng assortiment asosida xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Shuningdek, chakana savdoda kichik biznes ulushining yuqoriligi hududiy savdo tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qurilish sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining 76,5 foizlik ulushi, asosan, uy-joy qurilishi, ijtimoiy inshootlar barpo etilishi va infratuzilma loyihalarida ularning faol ishtirok etayotganini anglatadi. Mazkur holat iqtisodiy o'sishning real sektorini mustahkamlash, ishchi kuchi bandligini kengaytirish hamda texnik va ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda.

2025-yil holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 51,5 foizini shakllantirib, milliy iqtisodiyotda yetakchi o'rinni saqlab qolmoqda. Ushbu ko'rsatkich nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki innovatsion va raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, bandlikni oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda kichik biznesning strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur holat 2025-yilda amalga oshirilgan iqtisodiy strategiyalar samaradorligini ham yaqqol aks ettiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2024-yil).



Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida faol ishtirok etib, nafaqat ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga, balki hududiy bandlik va aholi daromadlarining o'sishiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, chekka hududlar va qishloq joylarda kichik tadbirkorlik mahalliy iqtisodiy faollikni ta'minlashning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, kichik biznes tarmoqlararo diversifikatsiyani kuchaytirib, mamlakatda barqaror va inkluziv iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, tarmoqlar kesimidagi ko'rsatkichlar kichik tadbirkorlikning nafaqat hajm jihatidan, balki tizimli va funksional nuqtayi nazardan ham muhim iqtisodiy omilga aylanganini ko'rsatadi.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 647 297 taga yetdi. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 40 574 taga yoki 6,7 foizga o'sdi.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 647 297 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 40 574 taga yoki 6,7 foizga o'sdi.

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga muvofiq, faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1,21 million (1 210 000) taga yetdi. Ushbu ko'rsatkich kichik korxonalar, mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, oilaviy biznes subyektlari, hunarmandlar va import tovarlari savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni o'z ichiga oladi. Mazkur o'sish kichik biznesning umumiy iqtisodiy faolligi va ro'yxatdan o'tgan subyektlar sonining sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni²

Yil	Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni	O'sish (oldingi yilga nisbatan)	O'sish foizi (%)
2023	606 723	-	-
2024	647 297	40 574	6,7
2025	1 210 000	562 703	86,9

Bu o'sish kichik biznesga bo'lgan davlat e'tiborining ortishi, ro'yxatga olish tartiblarining soddalashtirilishi hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi bilan bog'liqdir.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan faol kichik tadbirkorlik subyektlari soni 647 297 tani tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 40 574 taga yoki 6,7 foizga ko'payib, tadbirkorlik muhitining liberallasuvi, elektron ro'yxatga olish tizimlarining soddalashtirilishi hamda imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati natijasini aks ettiradi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha bir qator viloyatlar yetakchilik qilmoqda. Toshkent shahrida 86 504 ta subyekt (13,4 foiz) faoliyat yuritib, poytaxtning mamlakatdagi iqtisodiy, moliyaviy, texnologik va xizmatlar sohasidagi markaziy o'rnini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkich yirik iste'mol bozori mavjudligi, rivojlangan infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikning faolligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, IT-parklar, logistika markazlari, savdo majmualari hamda kafe-restoran bizneslarining keng tarqalganligi ushbu natijani yuqori darajada saqlab turmoqda.

Toshkent viloyatida 35 242 ta subyekt (5,4 foiz) ro'yxatga olingan bo'lib, viloyat sanoat zonolari, xalqaro transport yo'laklariga yaqinligi va agrar-sanoat majmualarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Hududda ko'plab kichik ishlab chiqarish korxonalari, servis xizmatlari va agroklastlar faoliyat yuritmoqda. Xususan, Ohangaron, Chirchiq va Yangiyo'l tumanlarida kichik sanoat zonalarining kengaytirilishi yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishiga turtki bo'lgan.

Samarqand viloyatida 34 553 ta subyekt (5,3 foiz) faoliyat yuritib, tarixiy, sayyohlik va sanoat salohiyati yuqori hudud sifatida kichik biznes rivojida yetakchi o'rin egallamoqda. Sayyohlik xizmatlari, hunarmandchilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab kichik tadbirkorlik subyektlari mavjud. Turizmga oid tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi viloyatda xizmatlar sektorining kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatida 31 824 ta subyekt (4,9 foiz) qayd etilgan bo'lib, Farg'ona vodiysi iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning o'zni alohida ahamiyatga ega. Marg'ilon, Qo'qon va Rishton shaharlarida hunarmandchilik, to'qimachilik va oziq-ovqat sohalarida ko'plab kichik korxonalar faoliyat yuritadi. Hududda yirik zavodlarga nisbatan oilaviy va kichik ishlab chiqarish korxonalarining ustunligi saqlanib, ularning barqaror o'sishi mahalliy bozorlar va eksport salohiyatiga tayanmoqda.

2 Muallif tomonidan yaratildi manba: Invexi.org (2025).



Buxoro viloyatida 25 899 ta subyekt (4,0 foiz) faoliyat ko'rsatib, turizm va xizmatlar sektorida kichik biznes eng jadal rivojlanayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, qurilish, savdo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar mavjud. "Yoshlar va ayollar tadbirkorligi" dasturlari doirasida 2023–2024-yillarda viloyatda yangi subyektlar soni sezilarli darajada oshdi.

Mazkur viloyatlar iqtisodiy salohiyati, infratuzilmasi va aholining tadbirkorlik faolligi bilan ajralib turadi. Aksincha, Sirdaryo viloyatida 9 977 ta va Jizzax viloyatida 15 640 ta kichik tadbirkorlik subyekti qayd etilib, bu hududlarda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash zarurligini ko'rsatadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga O'zbekistonda 1,21 million faol kichik biznes subyekti faoliyat yuritgan. Ular tarkibiga 479 000 ta kichik korxona va mikrofirmalar, 281 900 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar, 422 300 ta dehqon xo'jaliklari, 5 800 ta oilaviy biznes subyektlari, 22 100 ta hunarmandlar hamda 900 ta import tovarlari sotuvchilari kirgan.

Kichik biznes subyektlari zichligi har 1 000 kishiga 32,1 birlikka yetib, eng yuqori ko'rsatkichlar Xorazm viloyatida (43,5), Toshkent shahrida (43,4), Sirdaryo viloyatida (37,7) va Buxoro viloyatida (37,5) qayd etildi.

2025-yil yanvar–sentabr oylarida dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari 62 200 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etildi. Yangi subyektlarning asosiy qismi savdo (22 918 ta), sanoat (8 088 ta), qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik (7 714 ta) hamda turar joy va ovqatlanish xizmatlari (5 513 ta) sohalariga to'g'ri keldi.

2025-yilning dastlabki to'qqiz oyida kichik biznesning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 51,5 foizni tashkil etdi. Eng katta tarmoq ulushi qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik (96,9 foiz), qurilish (77,6 foiz), xizmat ko'rsatish (45,1 foiz) va sanoat (26,4 foiz) sohalarida qayd etildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 258,5 trillion so'mga yetib, umumiy sanoat ishlab chiqarishining 33,4 foizini tashkil etdi va 2024-yilning shu davriga nisbatan 16,7 foizga oshdi.

Qurilish ishlari jami 169,99 trillion so'mni tashkil etib, umumiy hajmning 75,7 foiziga teng bo'ldi hamda 11,3 foizga o'sdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi esa 270,14 trillion so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalarning 60,9 foiziga teng bo'ldi va 29,2 foizga oshdi.

Qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohalarida kichik korxonalar tomonidan 355,7 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu tarmoq umumiy mahsulotining 97,1 foizini tashkil etdi hamda 2024-yilning shu davriga nisbatan 4,1 foizga o'sdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan chakana savdo aylanmasi 258,77 trillion so'mga yetib, umumiy hajmning 81,8 foizini tashkil etdi va 9,6 foizga oshdi. Xizmatlar hajmi esa 397,49 trillion so'mni tashkil etib, umumiy hajmning 55,0 foiziga teng bo'ldi va 12,3 foizga o'sdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi 8,5 milliard AQSh dollarini tashkil etib, umumiy eksport hajmining 32,0 foiziga teng bo'ldi. Import hajmi esa 17,77 milliard AQSh dollarini tashkil etib, umumiy importning 53,7 foizini qamrab oldi.

Transport sohasida kichik biznes subyektlari ulushi 2024-yil yanvar–sentabr oylariga nisbatan yuk tashish hajmining 51,8 foizini (+7,0 foiz), yuk aylanmasining 77,0 foizini (+7,3 foiz), yo'lovchi tashishning 90,9 foizini (+3,8 foiz) hamda yo'lovchi aylanmasining 95,4 foizini (+3,2 foiz) tashkil etdi.

Bu raqamlar kichik va o'rta biznesning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'sib borayotgan rolini yaqqol ko'rsatib, ularning bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish hamda mintaqaviy rivojlanish jarayonlarida asosiy omil bo'lib xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining faollik darajasi yuzasidan o'tkazilgan tahlil hududlararo tafovutlar mavjudligini va ularning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari soni va faolligi bo'yicha Toshkent shahri mutlaq yetakchilikni saqlab qolmoqda. Poytaxtda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari ko'rsatkichi 27,5 birlikni tashkil etib, bu natija rivojlangan infratuzilma, xizmatlar sektorining yuqori darajada shakllangani, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasining yuqoriligi, shuningdek, texnologik va moliyaviy muhitning nisbatan liberalligi bilan izohlanadi.

Navoiy viloyati 17,7 birlik ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni egallab, hududda kichik tadbirkorlik faolligining yuqoriligi asosan sanoat salohiyati, xususan, erkin iqtisodiy zona doirasida faoliyat yuritayotgan korxonalar, logistika imkoniyatlari hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hajmlarining oshishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, yirik sanoat subyektlari atrofida shakllangan xizmat ko'rsatish zanjirlariga integratsiyalashgan kichik korxonalar sonining ko'pligi ushbu ko'rsatkichning yuqori darajada saqlanishiga xizmat qilmoqda.

Jizzax (13,8 birlik) va Sirdaryo (13,7 birlik) viloyatlarida ham shunga yaqin natijalar qayd etilgan. Mazkur hududlarda kichik biznesning barqaror rivojlanishi davlat tomonidan amalga oshirilgan hududiy rag'batlantirish siyosati, soddalashtirilgan kreditlash mexanizmlari hamda "mahallabay" yondashuv asosida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bilan chambarchas bog'liqdir. Jizzax viloyatida klasterlashgan yondashuv, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ichki iste'mol bozoriga yo'naltirilgan xizmatlar sohasida kichik biznesning o'sib



borayotgani kuzatilmoqda. Sirdaryo viloyatida esa agroklastlar va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarayotgan kichik korxonalar sonining ortishi hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyati 13,6 birlik ko'rsatkich bilan yuqori faollik darajasiga ega hududlar qatoridan joy olgan. Viloyatda kichik biznes asosan turizm, mehmonxona xo'jaligi va hunarmandchilik xizmatlariga yo'naltirilgan bo'lib, tarixiy meros obyektlari atrofida shakllanayotgan xizmat ko'rsatish tarmoqlari hamda ijtimoiy sohaga oid innovatsion loyihalar bilan ajralib turadi. Shuningdek, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish doirasida ajratilgan grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar yangi subyektlar sonining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur ko'rsatkichlar hududiy iqtisodiy faollik darajasi va tadbirkorlik muhitining rivojlanganlik holatini aniq aks ettiradi.

2020-yildan keyingi davrda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan institutsional va moliyaviy chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Avvalo, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar hamda imtiyozli kreditlar ajratilishi tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga kuchli turtki bermoqda. Ayniqsa, boshlang'ich kapitalga ega bo'lmagan yoshlar va ayollar uchun mo'ljallangan grantlar va imtiyozli kredit mexanizmlarining joriy etilishi ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy inkluziyani kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini sezilarli darajada soddalashtirdi. Elektron ro'yxatga olish, onlayn litsenziyalash va raqamli hisobot tizimlarining joriy etilishi byurokratik to'siqlarni kamaytirish bilan birga, davlat va biznes o'rtasidagi muloqotni yanada shaffof va tezkor shaklga keltirdi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), soliq organlarining mobil ilovalari hamda bank xizmatlarining onlayn integratsiyasi kichik biznes vakillarining vaqt va moliyaviy resurslarini tejash imkonini bermoqda. Raqamlashtirishning mazkur bosqichi biznes yuritish xarajatlarini qisqartirish, huquqiy aniqlikni oshirish va axborot almashinuvi tezligini ta'minlash orqali umumiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

Davlat siyosatining yana bir muhim yo'nalishi tadbirkorlik muhitini institutsional jihatdan takomillashtirishdan iborat. Bu borada biznes faoliyatiga oid ruxsatnomalar, sertifikatlar va litsenziyalarni olish jarayonlarining qisqartirilishi, soddalashtirilishi hamda onlayn tizimlarga o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 2023–2024-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida ko'plab byurokratik mexanizmlar bekor qilindi yoki sezilarli darajada avtomatlashtirildi. Shu bilan birga, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan Biznes-ombudsman instituti, elektron shikoyatlarni qabul qilish va monitoring tizimlarining faoliyati kichik biznes subyektlari uchun huquqiy kafolatlarni yanada mustahkamlab bermoqda.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli izchil oshib borayotganini ko'rsatadi. 2023–2025-yillar statistik ma'lumotlari tahliliga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa xizmatlar, savdo va qurilish tarmoqlarida yuqori faollik kuzatilmoqda.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida yetakchi o'rinni egallayotganini, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida esa nisbatan pastroq, biroq barqaror o'sish sur'atlari mavjudligini ko'rsatdi.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida kichik biznes rivojiga moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, soliq imtiyozlari hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Natijalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlikni oshirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash hamda hududiy rivojlanishda muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Tahlillar kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib borayotganini, ayniqsa xizmatlar va savdo tarmoqlarida yuqori faollik mavjudligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda kichik biznes salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, hududlar kesimida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish; ikkinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlash va soliq rag'batlarini kengaytirish; uchinchidan, xizmatlar va innovatsion faoliyat sohasida kichik biznes ishtirokini oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirishga hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti va tarmoqlar kesimidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2024-2025 yillar statistik byulletenlari. Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar (2023–2025). Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari soni va faolligi to'g'risida axborotnoma. Toshkent, 2025.
4. Boltayev M., Qosimova M., G'oyibnazarov B. "Kichik biznes va tadbirkorlik". - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. - 320 b.
5. Umurzaqov U.P., Toshboyev A.J. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Darslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 480 b.
6. Jumayev N. "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari". - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. - 256 b.
7. Qosimova M.S., Samadov A.N. "Kichik biznesni moliyaviy boshqarish va soliqqa tortish". - Toshkent: TDIU, 2022. - 290 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'rta muddatli makroiqtisodiy rivojlanish prognozlari (2024–2026). - Toshkent, 2024.
9. World Bank. "Small and Medium Enterprises (SMEs) Development in Transition Economies". - Washington DC, 2022.
10. OECD "SME and Entrepreneurship Outlook". - Paris: OECD Publishing, 2023.
11. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). "SME Development and Inclusive Growth". - Vienna, 2021.
12. My.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
